

MILLIY MUSIQA MADANIYATIDA DUTOR CHOLG‘USI EVOLYUTSIYASI VA TURKUMLANISHI

Sattorova Xurshida Turg‘unbayevna
Namangan davlat pedagogika instituti
Musiqqa ta’limi va san’at yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekiston xalqining boy madaniy merosi – milliy musiqiy cholg‘ularining tarixiy rivojlanishi, estetik ahamiyati va bugungi kundagi o‘rni haqida ma’lumot beradi. Milliy cholg‘ularning betakror ovozlari, jozibador bezaklari va ijro imkoniyatlari ular nafaqat o‘z davrining madaniy boyligi, balki zamonaviy musiqa san’ati va ta’limida ham muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Maqolada qadimiy zarbli, shovqinli va puflama cholg‘ularning kelib chiqishi, tarixiy ahamiyati va ular bilan bog‘liq arxeologik topilmalar batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, maqola dutor kabi cholg‘ularning o‘ziga xosliklari, yasash texnikasi, sozlanishi va ijro uslublari yoritadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng musiqa ta’limi va ijrochilik sohalarida amalga oshirilgan islohotlar, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati ham maqolada keng ko‘lamda muhokama etilgan. Ushbu tadqiqot milliy cholg‘ularning amaliy ahamiyatini boyitish va ularning pedagogik hamda ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lida katta qadamdir.

Kalit so‘zlar: Musiqa, cholg‘u, dutor, ijro, texnika, imkoniyat, madaniyat.

O‘zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish - milliy musiqiy cholg‘ularimiz o‘zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o‘rin tutadi. Musiqiy cholg‘ular azal-azaldan o‘zbek xalqining ma’naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg‘u ijrochiligi san’ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Uning barcha o‘ziga xos xususiyatlari va qirralarini o‘rganish esa cholg‘u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san’atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg‘ular eramizdan avvalgi o‘n uchinchi ming yillikda paydo bo‘lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg‘ular qadimgi mehnat qo‘shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg‘ular paydo bo‘ldi. Ijrochilar qarsak chalib

ritmni takidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga hos takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholg'ular eng qadimgi cholg'ular turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlari bilan bog'liq.

Samarqandning Urgut tumani Mo'minobod qishlog'idan topilgan eramizdan besh ming yil avval suyakdan ishlangan va beshta barmoq bilan bosib ijro etiladigan teshikka ega bo'lgan nay qisman saqlangan bo'lib, o'sha davrda bunday tovush ko'lamiga ega bo'lgan cholg'uda qanday kuylar ijro etilganligini tasavvur qilish mumkin. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to'liq cholg'u sifatida yetib kelmagan bo'sa-da, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg'ular paleolit davriga to'g'ri keladi. Shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi.³⁰

Dutorlar oilasi; O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, musiqa madaniyati sohalarida umidli yoshlar o'z izlanishlarini namoyon eta boshladilar. Ko'p asrlik milliy qadriyatlarimiz - ijodkorlar tomonidan turli janrlarda yaratilgan xilma – xil asarlarda tarannum etildi, ayni paytda an'anaviy bastakorlik musiqalariga bo'lgan munosabat ham tubdan ijobiy tarafga o'zgardi.

Yurtimizda musiqa san'atini rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Musiqa ta'limi tizimida cholg'ularda o'qitish kundan - kun rivojlanib, yangilanib, yanada kengroq imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Buning asosiy omillarini ijrochilik taraqqiyoti, kompozitorlik va bastakorlik ijodiyotining yuksalishi, ta'limning yangi innovatsion va axborot texnologiyalari bilan ta'minlanishi hamda yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalarining yaratilishi bilan bog'lash mumkin. Bolalar musiqa va san'at maktablari, kollej - litseylar, oliy o'quv yurtlardagi o'quv-tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng musiqa va san'at, xususan bu sohalarining ta'lim tizimini isloh qilish, uning mazmun-mohiyatini tubdan yangilash, zamonaviy texnologiya vositalari bilan ta'minlash davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bugungi Kunda musiqa san'ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko'tarinki rux berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo'naltirilishi bilan ahamiyatlidir. Musiqiy ta'lim mutaxassislari, o'qituvchi murabbiylarning sohani yanada takomillashtirish, o'qitishning sifat darajasini ko'tarish, samaradorligini oshirishga da'vat etadi. Shu bilan birga ijrochilik san'atida ham uslubiy jihatdan

³⁰ Z.Turogov."Dutor bas" Toshkent.2004.

turli xil asarlar o‘rin oldi. O‘zbek cholg‘u ijrochiligi qadimgi an‘analarga boy bo‘lib, cholg‘ularning oilalari hamda rang - barang janr va yo‘nalishdagi cholg‘u musiqa asarlarini o‘z ichiga qamrab olgan. Cholg‘ularimizdan xalq orasida mashhur bo‘lib, bizgacha etib kelganlaridan biri bu – dutor sozidir.³¹



Dutorlar oilasi

O‘zbekistonda keng tarqalgan cholg‘ulardan biri. U nafaqat o‘zbeklarning tojik, turkman va uyg‘urlarning ham sevimli cholg‘ularidan biridir. Dutorda ikkita ichak yoki ipakdan qilingan ip bo‘lib, bir yarim oktava diapazonga egadir. Dutor asosan noksimon shaklda yasaladi. Tas‘viriy san‘at yodgorliklari va yozma tarixiy manbalar o‘zbek xalq cholg‘ularini, jumladan dutorni qadimdan ijro etilib kelinishiga guvohlik beradi.

Abu-Nasr Muhammad Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy va boshqa olimlar o‘z asarlarida dutor haqida ancha to‘liq ma‘lumotlarni berib o‘tganlar. Dutor ikki qismdan (dasta va kosa) iborat bo‘lib, bu qismlarni birlashtiruvchi qismi “bo‘g‘iz” deb ataladi. Dutor kosasi o‘yma yoki qobirg‘achalarning birlashtirilishidan yasalishi mumkin. O‘yma dutor Samarqand, Xorazm va Turkmanistonda qo‘llanilib, bir bo‘lak tut yog‘ochidan o‘yib ishlanadi.

Qobirg‘ali dutor ham tut yog‘ochidan ishlanib, 8-10 bo‘lak yupqa taxtachaga egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog‘ochidan tayyorlanadi. Odatda, dutor yasaladigan tut yog‘ochi soyada quritiladi. Dutor dastasi olma yog‘ochidan qilinadi va unga 13–14 ta ichak parda bog‘lanadi. Cholg‘uning umumiy uzunligi 1200–1300 millimetrni tashkil qiladi. Ayrim joylarda 750–800 millimetrli dutorlar ham uchraydi. Ipakdan qilingan ikki tor kvarta (o‘rta parda sozi), kvinta (bosh parda sozi), unison (qo‘sh parda sozi) va oktava oraliqlariga sozlanadi. Bu sozlardan ko‘proq qo‘llaniladigani “Munojot”

³¹ Odilov A. «O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi» Toshkent. 1995

(kvinta) va “Tanovor” (kvarta) sozlaridir. Bu sozlar aniq bir balandlikda bo‘lmay, ijrochi va ashulachi xohishiga binoan turlicha balandlikda sozlanishi mumkin.

Dutor – tojik tilida ikki tor ma’nosini beradigan, eng sevimli va ommalashgan o‘zbek musiqiy cholg‘ularidan biridir. Dutor kuylari asosan birinchi torda ijro etilsada, ikkinchi tor o‘sha kuyga qo‘shilib, doimiy sado berib turishi ushbu cholg‘uni boshqa cholg‘ulardan ajratib turadi. Shuning uchun ham dator kuylarini notalashtirilganda har ikkala tordagi notalar ko‘rsatilishi shart. Bu o‘ziga xos murakkabliklar tug‘diradi. Dutorning sadosi juda mayin bo‘lib, tovush tembri baland bo‘lmasada quloqqa juda yoqimli va yaxshi eshitiladi. Ba’zi cholg‘ular doyra jo‘rligisiz ijro etilishi qiyin bo‘lgani holda, datorning o‘zida usulni chalib borish imkoniyati, uni yakka holda ham yaxshi qabul qilishga yordam beradi. “Rohat”, “To‘rg‘ay”, “Dutor bayoti” kabi dutorda yakka ijro etish uchun mo‘ljallangan qator kuylar mavjud. Dutor sadosi aniq va yaxshi eshitilishi uchun tanbur yoki g‘ijjak bilan birgalikda, shuningdek kichik cholg‘u jamoalarda foydalangan ma’qul. Dutor transpozitsiya qilinadigan cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Birinchi tori birinchi oktavaning “re” tovushiga, ikkinchi tori kichik oktavaning “lya” tovushiga sof kvarta oralig‘ida sozlanadi. Dutor cholg‘usi ham takomillashtirilib datorlar oilasi ya’ni dator-prima, dator-alt, dator-tenor, dator-bas va dator-kontrabaslar vujudga keldi.

Xulosa o‘rnida O‘zbekiston xalq musiqasining rivojlanishi va uning zamonaviy ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Milliy cholg‘ular, ular bilan bog‘liq tarixiy va madaniy jihatlar, bugungi musiqa ta’limi va ijrochilik jarayonida o‘zining beqiyos rolini o‘ynaydi. Musiqa ta’limi sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ayniqsa, milliy cholg‘ularni yosh avlodga o‘rgatish va ular orqali milliy musiqiy merosni saqlash borasidagi tadbirlar, ta’lim metodlari va texnologiyalarining rivojlanishi bu yo‘lda muhim yutuqlarga erishilganini ko‘rsatadi. Xalq cholg‘ularining tarixi, ularning sozlanishi, ijro uslublari va pedagogik yondashuvlar hozirgi musiqa ta’limida o‘quvchilarga o‘rgatishda samarali vositalar sifatida xizmat qiladi. Maqola O‘zbekistonning musiqa merosini saqlash va uni kelajak avlodlarga o‘rgatishda interaktiv texnologiyalarni qo‘llashning zarurligini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodir o‘g‘li, M. S. (2025). MILLIY MUSIQA–XALQ MADANIYATINING MA’NAVIY KO‘ZGUSI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 8(10), 107-109.

2. Qodir o‘g‘li, M. S. (2025). MUSIQA O ‘QITUVCHILAR DARSLARDA ILG ‘OR TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO ‘NIKMALARI. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 8(9), 90-94.
3. Qodir o‘g‘li, M. S. (2025). MUSIQA SAVODXONLIGI TUSHUNCHASI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(36), 220-224.
4. Qodir o‘g‘li, M. S. (2025). INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(32), 87-91.
5. Qodir o‘g‘li, M. S. (2024). INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR VA ULARNING MUSIQA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 3(28), 68-71.
6. Qodir o‘g‘li, M. S. (2025). MILLIY MUSIQA–XALQ MADANIYATINING MA'NAVIY KO ‘ZGUSI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 8(10), 107-109.
7. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
8. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
9. Gaziyeu, J. J., & Toshmatov, G. O. (2021). Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 467-472.
10. Gaziyeu, J. J., & Aliyeva, N. R. (2021). Dmitriy dmitrievich shostakovich life and work. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1181-1185.
11. Joraxanovich, G. J. (2023). Psychological Factors Of Musical Education. *JournalNX*, 9(11), 8-10.
12. Botirkhanovich, S. B. (2024). The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 5(1), 19-22.
13. Shokirkhonov, B. (2026, February). DEVELOPMENT OF STUDENTS'PERFORMING AND MUSICAL ABILITIES THROUGH INSTRUMENTS. In *International Conference on Social Sciences & Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 77-79).
14. Botirxonovich, S. B. (2025). MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(7), 139-150.
15. Toshmatov, G. U. O. (2026). Musiqa ta'limi jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 7(2), 195-201.
16. Тошматов, F., & Турдалиева, O. (2023). ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ИШЛАШГА ҚИЗИҚТИРИШ ОМИЛЛАРИ. Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований, 3(6), 162-166.
17. Olimjonovich, T. G., & Komiljanovna, D. G. (2022). The Importance of the Festival “East Songs” in the Introduction and Development of National Classical Music of the Peoples of the East. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 195-199.

18. Abduraimov, S. (2024). METHODS OF USING PRACTICAL METHODS IN MUSIC CULTURE LESSONS IN HIGH SCHOOLS. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(6), 22-25.
19. Abduraimov, S. Z. (2024). MUSIQA TO ‘GARAKLARI ASOSIDA O ‘QUVCHILARDA MILLIY RUHIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Inter education & global study*, (5 (1)), 44-51.
20. Erdonov, S. B., Maxmudov, A. V., Abduraimov, O. S., Allamurotov, A. L., Mavlanov, B. J., & Mamatkasimov, O. T. (2023). On Reserves of *Hippophae rhamnoides* L. Fruit on the Territory of the Zarafshan National Nature Park of Uzbekistan. *American Journal of Plant Sciences*, 14, 946-954.
21. Asrakulova, A. (2025). ECONOMIC VIEWS OF ABU NASR FORABI. *Инновационные исследования в науке*, 4(2), 65-68.
22. Nabievna, A. A. (2025). ECONOMIC THOUGHTS OF YUSUF KHOS KHOJIB. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 3(2), 212-214.
23. Asrakulova, A. (2025, February). HISTORICAL-PHILOSOPHICAL AND PUBLIC ADMINISTRATION ISSUES IN NIZAMULMULK’S “SIYOSATNOMA”. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 4, No. 2, pp. 85-88).
24. Jurayeva, G. (2025). TALABALARNING O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK MAHORATLARINI OSHIRISHDA USTOZ-SHOGIRD AN‘ANALARINING O‘RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 535538.
25. Jurayeva, G. (2024). MUSIQA FANIDA XALQ CHOLG‘ULARINI O‘RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Universal Science Perspectives International Scientific Practical Journal*, 1(1).
26. Jo‘Rayeva, G. Z. Q. (2026). STEM yondashuvi asosida musiqa nazariyasi ta’limini rivojlantirish yo‘llari. *Science and Education*, 7(2), 169-174.
27. Akhmedov, B. (2026, February). THE ROLE OF MUSIC IN THE FORMATION OF PERSONALITY. In *International Conference on Social Sciences & Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 72-76).
28. Akhmedov, B. (2026, February). TECHNICAL AND EXPRESSIVE ASPECTS OF THE CONDUCTING APPARATUS. In *International Conference on Social Sciences & Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 68-71).
29. Ahmedov, B. S. (2026). Umumta’lim maktablari musiqa darslarida musiqa tinglash jarayonining metodik asoslari. *Science and Education*, 7(2), 182-187.
30. Tajiboyev, E. (2025). O ‘ZBEK MILLIY QADRIYATLARINING TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O ‘RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3).
31. Tajiboev, E. (2025). ORGANIZATION OF AN OUT-OF-CLASS MUSIC CLUB IN COMPREHENSIVE SECONDARY SCHOOLS. *Развитие и инновации в науке*, 4(2), 13-16
32. Tajiboyev, E. M. (2026). Scientific and pedagogical foundations of developing the skills of listening to national music in higher education system. *Science and Education*, 7(1), 1038-1043.
33. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). O ‘quvchilarning STEAM ta’lim texnologiyalarini qo‘llash asosida muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. *Science and Education*, 7(2), 157-161.
34. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). Musiqiy mashg‘ulotlar orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. *Science and Education*, 7(3), 388-391.

35. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). Musiqa ta'limida STEM texnologiyalari va milliy musiqa integratsiyasi. *Science and Education*, 7(3), 392-395.
36. Odilova, G. O. (2026). Musiqa ta'limi yo 'nalishi talabalarida ritmik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari. *Science and Education*, 7(1), 960-965.
37. Odilova, G. (2025). MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BOLALAR BILAN ISHLASHDA MULOQOT TEXNOLOGIYASIDA. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 367-370.
38. Odilova, G. O. (2026). Musiqa ta'limi orqali bolaga emotsional yondashish tendensiyalari. *Science and Education*, 7(2), 162-168.
39. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
40. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
41. Joraxanovich, G. J. (2025). XIX ASR OHIRI XX ASR BOSHLARIDA YEVROPADA MUSIQA PSIXOLOGIYASI RIVOJLANISHI. *Научный Импульс*, 4(37), 157-161.
42. Muhammadjon o'g, O. R. A. (2025, December). RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA PEDAGOGIKA YO 'NALISHI TALABALARI KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASI. In Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus (Vol. 1, No. 1, pp. 1156-1159).
43. Muhammadjon o'g, O. R. A. (2025). MUSIQA TA'LIMINI BARCHA TALABALAR UCHUN INKLYUZIV TARTIBDA TASHKIL ETISH. "Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlar" ilmiy-uslubiy jurnali, 1(2), 3-9.